

## **XORAZM VILOYATIDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI XIZMATINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN**

*Xamdamova Yulduz Ravshanbek qizi,*

*Xorazm viloyati IIB xodimi*

*E-mail: yuxamdamova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada Xorazm viloyatida yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining shakllanish tarixi yoritilgan. Dastlab XX asrning 30-yillarida bu vazifalar transport bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, 1936-yilda davlat avtomobil inspeksiyasi tashkil etilishi bilan ushbu faoliyat yangi bosqichga o‘tgan. Xizmat xodimlari dastlab oddiy sharoitlarda ishlagan, ammo yillar davomida milliy kadrlarning jalb qilinishi, transport vositalari va xodimlar sonining oshishi bilan inspeksiya zamonaviylashgan.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, yo‘l harakati, xavfsizlik, davlat avtomobil inspeksiyasi, transport, militsiya, inspektor, xizmat, tarix, rivojlanish.

Xorazm viloyatida yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining shakllanishi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. XX asr boshlarida transport vositalari sonining oshishi va yo‘l harakati qoidalarining ahamiyati ortishi bilan bu sohada maxsus nazorat va boshqaruv tizimiga ehtiyoj yuzaga keldi. Aynan shu ehtiyoj asosida Xorazmda dastlabki yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tashkil etilib, keyinchalik ular yanada tizimli va malakali ko‘rinishga ega bo‘ldi.

Xorazm vohasida XX asrning 30-yillarigacha yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlash ishi bilan okrug (viloyat) ijroiya qo‘mitasi huzuridagi transport bo‘limi shug‘ullangan. Bu bo‘lim yo‘l harakati xavfsizligiga oid turli hujjatlar buyruq va yo‘riqnomalar tayyorlagan. Huquqbuzarlarga qonun bilan belgilangan tarzda jarimalar solgan hamda idora va tashkilotlar ustidan tegishli rahbarlikni amalga oshirgan. Shahar va tumanlarda 1 nafardan yo‘l inspektori va viloyatda katta yo‘l inspektori faoliyat olib

borgan. Ular maxsus formalı kiyimga ega bo'lmagan holda, "Dorojniy inspektor" degan yozuvda yashil rangdagi qo'lbog'lag'ichlarni taqib yurishgan.

Bu davrda Xorazm viloyatida 20 taga yaqin yuk va yengil avtomobillar mavjud bo'lgan xolos. Asosiy transport vositalari turiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quruqlikda ot-arava va yuk hayvonlari, suv yo'llarida esa Amudaryo kemalaridan iborat bo'lgan. Yo'l inspektorlari avtomobillar bilan bir qatorda ot-arava va faytunlarning harakatini ham nazorat qilishgan. Faytunlarda davlat raqam belgilari bo'lganligini ko'rish mumkin. Xorazm ichki dehqon militsiyasining post militsionerlari ham yo'l harakatini ta'minlash ishlari bilan shug'ullanishgan. Lekin asosiy nazorat ijroiya qo'mitasining transport bo'limi zimmasiga yuklatilgan.

Xorazm davlat avtomobil inspeksiyasining tashkil etilishi O'zbekiston Ichki ishlar xalq komissarining 1936-yil 27-apreldagi "O'zbekiston ishchi dehqon militsiyasi boshqarmasi tizimida avtoinspeksiyasi tashkil etish va uning vaqtinchalik shtatlarini e'lon qilish to'g'risida" gi 263-sonli buyrug'i bilan bog'liq bo'lib, Xorazmda ushbu xujjat asosida avtoinspeksiya xizmatini joriy etish rejalashtirilgan.

1936-yil 3-iyulda sobiq Ittifoq Xalq Komissarlari Sovetining 1182-sonli qarori bilan militsiyaning yangi xizmati - davlat avtomobil inspeksiyasi (DAN) to'g'risida birinchi Nizom tasdiqlangan. Ushbu kun rasmiy ravishda DAN tashkil topgan kun sifatida tarix sahifalaridan o'rin oldi. Ammo, hukumatning bu qarori Ichki ishlar xalq komissari tizimida buyruq holatida Xorazmga yetib kelguncha ancha vaqt o'tgan. Shuning uchun ham Xorazmda bu xizmat ancha kechroq dekabr oyida tashkil etilgan. Atiga 1 shtatdan iborat bo'lgan xizmatga ishchi dehqon militsiyasi Xorazm okrug boshqarmasi boshlig'ining 1937-yil 15-yanvardagi 8-sonli buyrug'iga asosan Grigoriy Kondrat'evich Redko tayinlanadi.

Viloyatda 1941-yilda DAN guruhiga ya'na ikkita shtat beriladi. Bularda kichik leytenant Petr Mixalev, serjant Sergey Rosshupkinlar faoliyat ko'rsatishdi. Shu yili DAN guruhiga bo'linma maqomi berildi va unga O'zbekiston ichki ishlar xalq

komissari davlat xavfsizligi kapitani Yuldash Bobojonovning 1941-yil 30-apreldagi 214-sonli buyrug'iga asosan serjant S.Rosshupkin boshliq etib tayinlanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida DAN xizmatida militsiya starshinasi Ro'zim Bekchanov, leytenantlar Valentin Kartashev, Viktor Karpov va Golovin kabi xodimlar faoliyat olib bordilar. 1950-yillarining boshlarida xizmatda kichik leytenantlar Abdusharif Xasanov, Jumaniyaz Xudayberganov, Ko'pol Jumaniyazov, Ollanazar Abduraxmanov, kichik serjant Maryam Davletyorova, leytenant Stepan Gubarevlar faoliyat ko'rsatdilar.

1960-yillarga kelib, DAN xizmatida milliy kadrlar soni yanada ko'paydi. Bu davrda xizmatda militsiya leytenanti Xo'ja Pirnazarov, militsiya starshinasi Yavkoch Sadullaev, kichik serjant Rajab Kazakov, serjant Qobul Otajanov, kichik leytenant Mo'min Yigitaliev, serjantlar Sadulla Sultanov, Bekturdi Otajanov, kichik leytenantlar Qobul Turdiev, Bozorboy Klichev, Otanazar Rajabov, Yusupboy Rajabov, Sharipboy Xudayorov, leytenant Shokir Qurbonov va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar. Bu davrga kelib, Xorazm viloyatida transport vositalarining soni 12 mingdan oshib ketganligini ko'ramiz. Xususan, davlat sektoriga qarashli transportlar 6,1 ming tani, shaxsiy transportlar esa 6,4 ming tani tashkil etgan. Avtoinspeksiya xodimlari soni 35 kishiga yetdi. Apparatda 8 nafar xodim qolganlari viloyatning shahar va tumanlarida xizmat qila boshladilar.

1970-yillarning boshlariga kelib xizmatga maxsus ma'lumotli xodimlarning jalb qilinishi davom etdi. Bular orasida Toshkent militsiya maktabini avtoinspeksiya sohasi bo'yicha tamomlagan leytenantlar Quronboy Ruzmetov, Erkaboy Rajabov, kichik leytenantlar Otanazar Egamberganov, Jumanazar Xo'janazarov, Sadulla Madrimov, Valeriy Kim, Egambergan Yakubov, Kadam Matkarimov, Erkaboy Ro'zmetov, Baxodir Jumaniyazov, Quranboy Baltaevlar bor edi.

Xulosa shuki, Xorazm viloyatida yo'l harakati xavfsizligi xizmati shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lib, dastlab transport bo'limi tomonidan boshqarilgan bu faoliyat, 1936-yilda davlat avtomobil inspeksiyasining tashkil etilishi

bilan yangi tizimli asosda yo'lga qo'yilgan. Yillar davomida kadrlar soni va malakasi oshib, texnika va infratuzilma rivojlangan, bu esa xizmatning samaradorligini ta'minlagan. Mazkur jarayon transport vositalari sonining o'sishi va milliy kadrlar faoliyatining kengayishi bilan bog'liq ravishda takomillashib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xorazm viloyat IIB Mehnat va jangovar shuhrat muzeyi joriy arxiv materiali. Xorazm militsiyasining tashkil etilishi va shakllanishi (1920-1991 yillar). Urganch, 2014 yil.
2. Tajiev K., Matyakubov M. Osoyishtalik yo'lida bir asr. T.: Azmin nashr print, 2022.
3. **Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского правительства СССР за 1936 г. № 32-65. Отдел первый. — М., 1936.**
4. Vazirlik tarixi <https://gov.uz/uz/iiv/pages/vazirlik-tarixi>